

HUDUDLARDA TRANSPORT INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH JIHATLARI

Murodillayev Sardorbek

Karshi Institute of Engineering and Economics

MI-520-22A group graduate student

murodillayev.sardorbek@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada transport infratuzilmalarining O‘zbekistonga kirib kelishi, rivojlanishi, ularni modernizatsiya qilish va hududlarda transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish bosqichlari, yer osti va yer usti transportlarini rivojlantirishda jahon tajribalarini inobatga olgan holda ularni hududlarda kompleks rivojlantirish va kommunikatsiya tizimini yanada takomillashtirish masalalariga alohida etibor berilgan.

Kalit so‘zlar: Transport, transport infratuzilmalari, kompleks rivojlanish, modernizatsiya qilish, elektrlashtirish, integratsiyalashuv, iqtisodiy aloqalar.

Ma’lumki, O‘zbekiston qadim zamonlardan G‘arb va SHarqni bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lida joylashgan davlat sifatida mashhur bo‘lgan. Endilikda ana shu qadimiy yo‘l yangicha sayqal topib, ellarni-ellarga bog‘lab kelmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish transport va kommunikatsiya tizimini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tutgan o‘rni, sanoat va boshqa sohalarning taraqqiyoti, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni jadal rivojlantirish va takomillashtirishning 1995-2010 yillarga mo‘ljallangan milliy dasturi ishlab chiqildi. SHu dastur doirasida 1996 yildan “Toshkent–Andijon–O‘sh” magistralining 100 km.dan ortiq tog‘li uchastkalarida “Qamchiq” va “Rezak” tunnellarini qurish ishlari boshlandi. “Olma-ota–Bishkek–Toshkent–Termiz” va “Samarqand–Buxoro–Ashxobot–Turkmanboshi” avtomobil yo‘lining respublika hududidan o‘tadigan qismini ta’mirlesh ishlari amalga oshirildi. O‘zbekistonni Qozog‘iston orqali Rossiya Federatsiyasi bilan bog‘laydigan 340 kilometrli “Qo‘ng‘irot–Beynov” avtomobil yo‘li qurilishi yakunlandi.

Respublikada bunyodkorlik ishlarini davom e’ttirish maqsadida, 2011-2015 yillarda transport va kommunikatsiya infratuzilmasi qurilishini jadal rivojlantirish

dasturining qabul qilinishi ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmasi tarmog'ini mamlakat va hududlar iqtisodiyotini istiqbolli taraqqiy ettirish bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar bilan uzviy bog'liq holda yanada rivojlantirish imkonini berdi. Ushbu dasturga muvofiq, 2012 yilda qariyb 500 kilometrlik to'rt yo'lakli zamonaviy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi dunyo transport-kommunikasiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu hududda O'zbekiston tomonidan transport majmuasini modernizasiya qilish va yangi xalqaro yo'nalishlarni ochish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarildi.

Amalga oshirilgan bu buyuk ishlarning eng muhim ahamiyati va mohiyati shundaki, o'zbek xalqi o'z kuch-qudratini va nimalarga qodir ekanini yana bir bor namoyon e'tdi. Buni dengiz sathidan 1800 metr balandlikda, qattiq qoya toshlardan iborat tog'li hududlar bo'ylab, yozning jazirama issig'i, garmsellari, qishning izg'irin shamollari ostida temir yo'l izlari yotqizilgani, Toshguzar va Dehqonobod, Oqrabot va Darband, Boysun va Qumqo'rg'on kabi 6 ta yangi stansiya va yo'lovchi platformalariga ega bo'lgan 9 ta bekat barpo etilgani misolida ham ko'rish mumkin.

Ayniqsa, barcha stansiyalarda yo'l xavfsizligini ta'minlaydigan ishlab chiqarish ob'ektlari, maktab, tibbiyot maskanlari, suv va gaz tarmoqlari kabi ijtimoiy infratuzilma inshootlari barpo qilingani bu loyihaning e'ng zamonaviy talablar darajasida amalga oshirilganini ko'rsatadi. "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'lining qurilishi jarayonida 43 ta ko'priklari, jumladan, temir yo'l ko'priklari va yo'l o'tkazgichlari singari murakkab muhandislik inshootlari yaratildi. Bu ko'priklarning 9 tasi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda bunyod e'tilgani, bu borada ilgari O'zbekiston tajribasida ko'rilmagan mislsiz ishlar bajarilganini ko'rsatadi.

Mintaqalarning tabiiy er osti boyliklarini o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tub burilishlarga yuz tutib, aholining turmush farovonligi oshdi. Yuk va yo'lovchi tashish masofasi 170 kilometrga, harakat vaqti esa 7 soatga qisqardi. Natijada temir yo'l bo'ylab tashilayotgan tranzit va mahalliy yuklar salmog'i sezilarli miqdorda ko'paydi. O'tgan yili mazkur temir yo'ldan 5 million tonna yuk o'tkazilgani, shundan 4 million tonnasi tranzit yuklar e'kanligi ana shundan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida temir yo'llarni elektrlashtirish ishlariga katta ahamiyat qaratildi. O'tgan davrda Xovos-Bekobod, Xovos-Jizzax liniyalari elektrlashtirildi va Maroqand-Qarshi, Maroqand-Buxoro yo'nalishlarini elektrlashtirish ishlari 2016 yilda yakunlandi.

Toshkent-Samarqand-Buxoro, Toshkent-Samarqand-Qarshi yo'nalishlarida tezyurar elektropoezdlar qatnay boshladi. Natijada poezdlardan foydalanish xarajatlarini 20 foizga kamaytirish, yo'lovchi va yuk tashish tezligini 1,3 barobar

oshirish imkoni yaratildi. Markaziy Osiyo mintaqasida eng birinchi bo‘lib yuqori tezlikda harakatlanuvchi Toshkent, Samarqand, Qarshi va Buxoro shaharlarini bog‘lovchi “Afrosiyob” poezdlari qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida, dunyodagi ko‘plab davlatlar bilan har tomonlama samarali hamkorlik o‘rnatish jarayonida fuqaro aviasiyasi o‘ziga xos alohida o‘ringa ega. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “Bizning jahon bozoriga chiqishimizda aviatsiya ulkan imkoniyatlarga ega ekanini inobatga olib, o‘tish davrining muqarrar qiyinchiliklariga qaramay, ushbu soha rivojiga ustuvor ahamiyat berdik”. Havo kemalari parkini zamonaviy talablar asosida yangilash bilan birga, ae‘roportlarni tubdan qayta qurish va havo harakatini boshqarish tizimini isloh etish ishlari amalga oshirildi. O‘zbekistonda nisbatan qisqa muddat ichida havo transportiga xizmat ko‘rsatish hamda eng zamonaviy samolyotlarni boshqaradigan yuksak malakali uchuvchi va texnik xodimlar tayyorlash borasida xalqaro andozalar va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan mustahkam baza yaratildi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” belgisi bilan parvoz qilayotgan samolyotlar turli davlatlarda joylashgan 40 dan ziyod aeroportga muntazam qatnay boshladi. Aviasiya sohasida amalga oshirilgan chuqur o‘zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkamlashda, uning dunyo miqyosidagi obro‘-e‘tiborini yanada oshirishda o‘ziga xos omil bo‘ldi. Mamlakat fuqaro aviasiyasini rivojlantirish bo‘yicha chuqur o‘ylangan, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning amalga oshirilishi, milliy aviakompaniyaning xalqaro aviatashuvlar va texnik xizmat ko‘rsatish tizimidan munosib o‘rin e‘gallashida muhim omil bo‘ldi. Aviasiya xavfsizligi va parvozlarni sifatli amalga oshirishni ta‘minlash, aviasiya texnikasiga xizmat ko‘rsatishda eng ilg‘or texnologiyalarni keng qo‘llash, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash sohasida erishilgan yuksak natijalar nufuzli xalqaro aviasiya tashkilotlari tomonidan bir necha bor taqdirlandi.

Umuman olganda, istiqlol yillarida O‘zbekistonning transport va kommunikasiya tizimini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ulkan ishlar bajarildi. Respublikada transport mustaqilligi ta‘minlandi va mamlakatning barcha hududlarini o‘zaro bog‘laydigan milliy transport yaxlit tizimi vujudga keldi. Vatanimizda yaratilgan samarali transport tizimi dunyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuv va tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Yo‘lovchilar uchun qulay, xavfsiz, tezkor va ishonchli bo‘lgan jamoat transporti xizmatini tashkil etish barcha megapolis shaharlardagi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Aholining keng qatlami o‘z shaxsiy transport vositalaridan ko‘ra aynan jamoat transportini afzal bilib uning xizmatlaridan foydalanishi uchun esa avvalambor, jamoat transporti har tomonlama (vaqt nuqtai nazaridan, moliyaviy jihatdan, qulayligi bilan) jozibador bo‘lishi talab etiladi.

Mamlakatimizda aholi daromadlari va turmush darajasining ortishi bilan yil sayin avtotransport vositalarinnig soni ham ortib bormoqda. Oxirgi 10 yilda birgina poytaxtimiz Toshkent shahrida avtomobillar soni 250 mingtadan 510 mingtaga, 2 baravar oshgan. Kuniga Toshkent shahri ko'chalariga 600 mingdan ziyod transport vositalari chiqadi. Shunga mos ravishda transport infratuzilmasi rivojlantirib borilmoqda. Biroq yo'l harakatini tartibga solishdagi kamchiliklar tufayli ko'chalaridagi yuklamalar, transport vositalarining tirbandligi yil sayin ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida katta iqtisodiy yo'qotishlarga, atrof-muhitning zararlanishiga, shuningdek, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etmoqda. Shu boisdan davlatimiz rahbari xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Toshkent shahrida jamoat transporti tizimi va infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha topshiriq bergan edi. Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahar hokimligi va Turkiyaning "Kalyon Ulaştırma" kompaniyasi bilan hamkorlikda poytaxtimizdagi muammo va kamchiliklar kompleks o'rganib chiqildi. Geoinformatsion tizim hamda modellashtirish orqali transport va yo'lovchilar oqimi tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar natijasida Toshkent shahrida jamoat transporti jozibadorligini yanada oshirish, aholi uchun sifatli va qulay transport tizimini joriy etish yuzasidan bir necha yo'nalishlar bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan rivojlantirish, tranzit yuk tashish hajmini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, transport infratuzilmasi iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoqni yanada rivojlantirish maqsadida "2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi" qabul qilindi. Unda milliy transport tarmog'ini rivojlantirish sohasidaxalqaro talablar va standartlarga javob beruvchi yaxlit kompleks strategiyani ishlab chiqish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini hududiy va jahon bozoriga olib chiqishni hisobga olgan holda, ushbu strategiyani xalqaro transport tizimiga keng integratsiya qilishni ta'minlash ko'zda tutilgan. Dasturda transport infratuzilmasi va tranzit yo'laklarinirivojlantirish, yangi avtomobil va temir yo'llari, aviaqatnovlarni ochish orqali barcha transport turlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, transport-tranzit salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadidayuqorida qayd etilgan zarur sharoitlarni yaratish transport tizimining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, O'zbekiston hududidan o'tish uchun mavjud to'siqlarni bartaraf etish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy Osiyoda xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. A.x. Shoalimov (1-3), SH I.Ilhamov (7-14boblar), SH. A. Tojiboyeva (4-5 boblar). Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik –T.: “Sano-standart”, 2017-yil
2. Sh.Mirzyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”.-T:O‘zbekiston, 2017.-488 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2019-yil 1-fevraldagi PQ №4143-sonli Qarori.
4. Toshshahartransxizmat uyushmasidan olingan ma’lumotlar.